

IBN XALDUNNING SOTSIOLOGIK QARASHLARI VA ULARNING ZAMONAVIY AHAMIYATI

Ismatullayeva Maftuna Farhodjon qizi

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
Ijtimoiy-gumanitar fanlar fakulteti sotsiologiya yo'nalishi 1-bosqich talabasi
maftunafarhadovna499@gmail.com*

Annotatsiya. Ushbu maqolada buyuk musulmon mutafakkiri Ibn Xaldunning sotsiologiya fanining shakllanishi va rivojiga qo'shgan hissasi chuqur tahlil qilinadi. Tarixiy-tahliliy, taqqoslama va empirik metodlardan foydalanilgan holda uning "asabiyya" konsepsiyasi orqali jamiyat barqarorligi, davlat qudrati va ijtimoiy tizimlarning dinamikasini ilmiy asosda yoritib berilgan. Ilmiy izlanishlar davomida Ibn Xaldun g'oyalarining zamonaviy sotsiologik yondashuvlar, xususan tizimli tahlil va ijtimoiy kapital nazariyasi bilan uyg'un jihatlari ochib beriladi. "Asabiyya" tushunchasi bugungi global sotsiologiyada ijtimoiy birdamlik, jamoaviy barqarorlik va siyosiy hamjihatlikni tushuntiruvchi universal kategoriya sifatida talqin qilinib, hozirgi ijtimoiy jarayonlarni ilmiy asosda tahlil qilish, ijtimoiy o'zgarishlarning sabab-natija bog'liqligini aniqlash hamda madaniy va iqtisodiy omillar o'rtasidagi aloqadorlikni tushuntirib beradi.

Kalit so'zlari: Ibn Xaldun, sotsiologiya, asabiyya, jamiyat, tarixiy tahlil, sotsiologik nazariya, zamonaviy tafakkur.

Kirish. Ibn Xaldun (1332–1406) faoliyati natijasida ilmiy – falsafiy faoliyat sifatida o'ziga xos intellektual sohaga aylantiradi va sotsiologiyani olib kiradi. Uning eng mashhur asarlaridan biri "Kitob-ul ibar" asari bo'lib, bu asari davlatning tug'ilishi ya'ni tarkib topishidan to yemirilishigacha berilgan. Aslida har bir davlatda kuch birdamlikda degan shiorni olg'a suradi. Abdurahmon ibn Xaldun nafaqat musulmon olamida, balki butun insoniyat tarixida eng muhim va ko'zga ko'ringan shaxslardan biridir. Ibn Xaldun haqida xorijda juda ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Tadqiqotchilar olimlar hayoti va faoliyati borasidagi ilmiy tadqiqotlarida uning "Muqaddima" va "At-Ta'rif" asarlariga tayanadi. "Muqaddima" asarini ingliz tiliga tarjima qilgan olim Allen James Fromerz shunday deydi: "Mavjud tarjimayi hollargina Ibn Xaldunning hayoti va ijodi, uning bosib o'tgan yo'li haqida ma'lumot bera oladi" [1]. Ya'ni bundan anglashiladiki, u haqdagi tadqiqotlarni yanada ko'paytirish kerak va ular barcha tillarda olib borilishi kerak. Chunki Ibn Xaldun ijodi juda boy va insoniyatga uning ijodini ko'proq yetkazib berish kerak. Yana bir olim Shmidt Nataniel 1930-yilda Ibn Xaldun hayoti va ijodi haqida "Ibn Khaldun: historian, sociologist and philosopher" nomli kitob yozgan" [2]. Ushbu asar 1967-yilda Nyu-Yorkda qayta nashr etilgan. Mazkur kitobda Ibn Xaldunning tarixchi, faylasuf va sotsiolog sifatidagi qirralari ochib berilgan. Ibn Xaldunning ijtimoiy nazariyalari nafaqat Sharq, balki G'arb olimlari tomonidan ham keng o'rganilgan. Uning asarlarida insoniyat tarixidagi ko'chmanchi va o'troq jamiyatlar o'rtasidagi farqlar, iqtisodiy rivojlanishning psixologik omillari, siyosiy hokimiyatning

legitimlik masalalari, davlat boshqaruvida adolatning o'rne kabi mavzular yoritilgan. Zamonaviy tadqiqotchilar, xususan Joseph Schumpeter, Arnold Toynbee, Karl Deutsch, Samuel Huntington kabi olimlar ham uning qarashlarini o'z tadqiqotlarida eslab o'tishgan. Toynbee Ibn Xaldunni "insoniyat tarixidagi eng buyuk tarix falsafachilaridan biri" deb atagan" [3]. Asabiyya tushunchasi bugungi global dunyoda ijtimoiy kapital, milliy identitet, fuqarolik birdamligi va siyosiy integratsiya kabi masalalar bilan bevosita bog'liqdir. Ayniqsa ko'p millatli jamiyatlarda birdamlikning saqlanishi, ijtimoiy ishonchning mustahkamlanishi, davlat institutlariga bo'lgan hurmatning oshishi asabiyya ruhining zamonaviy talqinidir. Zamonaviy global o'zgarishlar fonida sotsiologik tafakkurning tarixiy ildizlarini tahlil qilish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, Ibn Xaldunning konsepsiyasi, ayniqsa "asabiyya" g'oyasi, bugungi kunda ijtimoiy birdamlik, siyosiy barqarorlik va madaniy uyg'unlikni tushuntirishda nazariy asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Ibn Xaldunning "Muqaddima" asari ijtimoiy tizimlarning ishlash mexanizmini ilmiy asosda tahlil qilgan birinchi asarlardan biridir. U shunday yozadi: "Jamiyatdagi har bir o'zgarish sababsiz yuz bermaydi; uning sababi insonlarning birlashishi va ijtimoiy jarayonlardagi o'zaro ta'siridir" [4]. Zamonaviy tadqiqotchilar Ibn Xaldunning bu yondashuvini sotsiologik tahlilning asosi sifatida e'tirof etishadi: "Ibn Xaldunning sotsiologik asosi ijtimoiy tuzilmalar dinamikasini tushuntirishga qaratilgan eng dastlabki tizimli urinishlardan birini taqdim etadi" [5].

Uning metodologiyasi quyidagilarga asoslanadi:

1. Tarixiy-analitik metod – ijtimoiy voqealarni sabab-natija bog'liqligida tahlil qilish.
2. Taqqoslash metodi – turli jamiyatlarni solishtirish orqali umumiy qonuniyatlarni aniqlash.
3. Empirik kuzatuv – tarixiy hodisalarni real ijtimoiy faktlar asosida o'rganish.
4. Asabiyya konsepsiyasi – ijtimoiy birlik va siyosiy barqarorlikni tushuntiruvchi asosiy tamoyil.

Syed Farid Alatas Ibn Xaldunni "islom sotsiologiyasi asoschisi" deb atab, uning tahlilii uslubi zamonaviy empirik tadqiqotlarga mos kelishini ta'kidlaydi" [6]. Asabiyya tushunchasi bugungi global dunyoda ijtimoiy kapital, milliy identitet, fuqarolik birdamligi va siyosiy integratsiya kabi masalalar bilan bevosita bog'liqdir. Ayniqsa ko'p millatli jamiyatlarda birdamlikning saqlanishi, ijtimoiy ishonchning mustahkamlanishi, davlat institutlariga bo'lgan hurmatning oshishi asabiyya ruhining zamonaviy talqinidir. Ibn Xaldun shuningdek, jamiyatdagi iqtisodiy o'zgarishlar bilan siyosiy jarayonlar o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni tushuntirib bergan. U soliqlar haddan tashqari oshirilsa, davlatning iqtisodiy bazasi qulashini, mehnat unumdorligi pasayishini, xalq norozi bo'lishini ilmiy asos bilan izohlab bergan. Zamonaviy iqtisodiy siyosatdagi Laffer egri chizig'i g'oyasi bilan uning bu fikrlari o'xshashdir.

Muhokama. Ibn Xaldunning konsepsiyasi bugungi global sotsiologiya uchun ham dolzarbdir. U ijtimoiy tizimlarda kuch, iqtisod va madaniyat o'rtasidagi o'zaro ta'sirni tahlil qilish zarurligini ko'rsatadi. Anderson shunday yozadi: "Ibn Xaldunning jamiyatni o'rganish

yondashuvi ijtimoiy guruhlar, institutlar va iqtisodiy kuchlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikka urg'u beradi va vaqt davomida saqlanib qoladigan naqshlarni yoritadi"

Bu fikr shuni ko'rsatadiki, Ibn Xaldunning metodologiyasi hozirgi davrda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Uning yondashuvi orqali biz jamiyatdagi o'zgarishlarni, iqtisodiy tengsizlikni va siyosiy barqarorlikni ilmiy asosda tahlil qila olamiz. "Asabiyya" tushunchasi Ibn Xaldun nazariyasining yuragi hisoblanadi. U bu atama orqali ijtimoiy birdamlik, jamoaviy kuch va umumiy manfaatni ifoda etgan. Uning fikricha, har bir mustahkam davlatning ildizi ana shu birlikdadir.

Insonlar o'rtasidagi ishonch, o'zaro hurmat va birdamlik yo'qolsa, jamiyat ham zaiflashadi. Shu bois, "asabiyya" — ijtimoiy tizimni bog'lab turuvchi ruhiy ipdir. Bugungi kunda bu g'oya "ijtimoiy kapital" nazariyasi bilan uyg'unlashadi, chunki har ikkisi insonlar orasidagi hamkorlik va ishonchning kuchini ta'kidlaydi.

Ibn Xaldun ijtimoiy rivojlanishni tabiiy qonuniyatlar asosida tushuntirgan. U jamiyatni biologik organizmga qiyoslab, uning ham o'sish, barqarorlashuv va tanazzul davrlari borligini aytgan. Bu g'oya bugungi evolyutsion sotsiologiya nazariyalari, xususan Parsonsning tizimlar haqidagi qarashlariga yaqin. Biroq Ibn Xaldunning farqi shundaki, u o'z nazariyasini diniy, iqtisodiy va madaniy asoslar bilan uyg'unlashtirgan. Bu esa uni faqat tarixchi emas, balki zamonaviy sotsiologiya poydevoriga aylantirgan.

Mutafakkirning iqtisodiy qarashlari ham e'tiborga loyiq. U "mehnat"ni barcha boyliklar manbai sifatida ko'rgan. Mehnat jamiyatni harakatga keltiruvchi kuch, iqtisodiy barqarorlikning tayanchidir. Ibn Xaldun fikricha, davlatning qudrati mehnat unumdorligi, adolatli boshqaruv va xalqning birdamligiga bog'liq. Bu tamoyil hozirgi kunda ham o'z dolzarbligini saqlab qolgan, chunki har qanday ijtimoiy tizimning muvaffaqiyati inson resursiga tayanadi. Tarixiy tahlil ham uning ilmiy uslubining muhim jihatidir. Ibn Xaldun tarixni shunchaki voqealar ketma-ketligi deb emas, balki ijtimoiy sabablar tizimi sifatida ko'rgan. U "tarix – insoniyat tajribasining oynasi" deya ta'riflagan. Shu bois, har bir davrning ijtimoiy tuzilmasi, qadriyatlari va boshqaruv uslubi tarixiy tahlil orqali anglanadi. Bu metodologiya bugungi sotsiologiyada ham qo'llanilib, o'zgarishlar sababini aniqlashda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Zamonaviy nuqtai nazardan qaraganda, Ibn Xaldunning nazariyasi ijtimoiy integratsiyani tushuntirishda beqiyos ahamiyatga ega. U o'z asarlarida jamiyatning barqarorligi uchun faqat kuchli siyosiy tizim emas, balki ma'naviy birlik ham zarurligini ta'kidlagan. Bunday qarash bugungi O'zbekiston jamiyatida ham o'z ifodasini topmoqda — milliy g'oya, mahalla hamkorligi, oilaviy qadriyatlar va birdamlik ruhining ildizlari aynan shunday tamoyillarga asoslanadi. Shunday qilib, Ibn Xaldun nafaqat o'z davrining, balki butun insoniyat tafakkurining ilg'or namunasi. Uning "asabiyya" konsepsiyasi hozirgi global dunyoda ijtimoiy inqiroz, beqarorlik va ishonchsizlik muammolarini bartaraf etish uchun nazariy kalit bo'lib xizmat qiladi. Bu g'oya insoniyatni birlashtiruvchi kuch, madaniyatlararo muloqotni mustahkamlovchi g'oya va sotsiologiyaning eng qadimiy, ammo eng tirik tamoyillaridan biridir.

Natijalar. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, Ibn Xaldun jamiyatni murakkab tizim sifatida ko'rgan va uning rivojlanishida iqtisodiy, siyosiy hamda madaniy omillar bir-biri bilan chambarchas bog'liq deb hisoblagan. U "asabiyya" tushunchasi orqali jamiyatdagi birlik darajasini davlatning kuchi bilan bog'lagan. *"Insonlarning birlashuvi va ularning ijtimoiy munosabatlari jamiyatni mustahkam qiladi va uning rivojlanish yo'lini belgilaydi."* [7].

Shuningdek, Ibn Xaldunning jamiyatni "tirik organizm" sifatida ko'rgan nazariyasi zamonaviy tizimli tahlil yondashuvlari bilan hamohangdir. U jamiyatdagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlarning bir-biriga ta'sirini aniqlash orqali ijtimoiy hayotning ichki mexanizmlarini ochib bergan. Bugungi ijtimoiy fanlar bu qarashni rivojlantirib, jamiyatni o'zgaruvchan, lekin muvozanatga intiluvchi tizim sifatida tahlil qilmoqda. Shu bois, Ibn Xaldunning qarashlari sotsiologiya fanida tizimli yondashuv nazariyasining poydevoriga aylangan. Tahlillar natijalariga ko'ra, Ibn Xaldunning iqtisodiy va siyosiy tahlillari ham hozirgi ijtimoiy rivojlanish jarayonlariga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. U mehnatni boylik manbai deb bilgan, davlat kuchini esa xalq birdamligiga tayangan boshqaruv bilan bog'lagan. Bugungi kunda ham har qanday ijtimoiy tizimning mustahkamligi aynan shu uch omil — adolatli boshqaruv, iqtisodiy faollik va jamoaviy birdamlik orqali ta'minlanadi. Bu holat Ibn Xaldunning fikrlarining hozirgi zamon ijtimoiy-siyosiy barqarorlik siyosatida o'z aksini topayotganini ko'rsatadi. Zamonaviy sotsiologlar ham Ibn Xaldunning yondashuvini empirik usullar orqali qayta baholab, uning nazariyasi amaliy tadqiqotlarga mos ekanini ta'kidlamogdalar. Masalan, ijtimoiy kapital, jamiyatdagi ishonch darajasi yoki birdamlikni o'lchashga qaratilgan so'rovlar "asabiyya" g'oyasining zamonaviy talqinidir. Ularning barchasi insonlar o'rtasidagi ishonch, o'zaro yordam va maqsad birligi jamiyatning rivojlanishida hal qiluvchi omil ekanini tasdiqlaydi [8].

Natijalar shuni ham ko'rsatadiki, Ibn Xaldun metodologiyasi — ya'ni tarixiy-tahliliy, taqqoslash va empirik kuzatuv yondashuvlari — bugungi sotsiologik tadqiqotlarda ham muvaffaqiyat bilan qo'llanilmoqda. Bu metodlar yordamida zamonaviy olimlar ijtimoiy o'zgarishlarning sabablarini, iqtisodiy nomutanosiblikning oqibatlarini va siyosiy tizimlarning barqarorlik darajasini tahlil etishmoqda. Ibn Xaldun davlatlarning vujudga kelishi, kuchayishi va tanazzulini tabiiy qonuniyatlarga asoslanib izohlagan. Asabiyya — jamiyatdagi birlik va siyosiy barqarorlikning asosiy ko'rsatkichi sifatida bugungi zamonaviy tadqiqotlarda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Ijtimoiy kapital, jamoaviy ishonch, siyosiy legitimlik kabi kategoriyalar — uning g'oyalarining amaliy ko'rinishlaridir [9].

Bugungi O'zbekiston misolida ham Ibn Xaldunning g'oyalari amalda o'z ifodasini topmoqda: milliy birlik siyosati, mahalla institutlari, o'zaro yordam tizimi va jamoaviy mas'uliyat qadriyatlarini aynan "asabiyya" ruhiga mos tamoyillarga asoslanadi. Shunday ekan, Ibn Xaldunning sotsiologik konsepsiyasi o'tgan asrlar chegarasidan chiqib, hozirgi zamon jamiyatlarini barqarorlik, ishonch va taraqqiyot sari yo'naltiruvchi ilmiy-falsafiy yo'l ko'rsatkichga aylangan.

Xulosa. Maqoladan xulosa qilib aytsak, Ibn Xaldunning sotsiologik qarashlari uning "Muqaddima" asarida namoyon bo'lib, bu asar jamiyatning ichki tuzilishi va tarixiy

rivojlanish mexanizmlarini ilk bor ilmiy asosda izohlab bergan fundamental manba hisoblanadi. Tadqiqot davomida aniqlanganki, Ibn Xaldun jamiyatni tasodifiy hodisalar yig'indisi emas, balki o'ziga xos qonuniyatlarga ega bo'lgan murakkab tizim sifatida talqin qiladi. Ayniqsa, uning "asabiyya" konsepsiyasi — jamiyatdagi birdamlik, jamoaviy hamkorlik, o'zaro ishonch va umumiy maqsad yo'lida jiplashuvni ifodalovchi tushuncha — davlatlarning shakllanishi, ravnaqi va tanazzulida hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo'ladi. Umuman olganda, Ibn Xaldunning ilmiy merosi tarixiy ahamiyatga ega bo'lish bilan birga, hozirgi global ijtimoiy muammolarni — ijtimoiy beqarorlik, iqtisodiy tengsizlik, integratsiya jarayonlari, birdamlikning susayishi va siyosiy legitimlik inqirozini — tahlil qilish uchun ham mustahkam nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Uning universalligi va tizimli yondashuvi zamonaviy ijtimoiy fanlar uchun beqiyos ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Fromherz, A. J. (2009). Ibn Khaldun: Life and times. Edinburgh University Press. (pp. 18–22)
2. Schmidt, N. (1967). Ibn Khaldun: Historian, sociologist and philosopher. New York: Columbia University Press. (pp. 5–9)
3. Toynbee, A. (1946). A study of history (Vol. 3). Oxford University Press. (p. 321)
4. Ibn Khaldun. (1377/so'nggi nashr yili). Al-Muqaddima. Asabiyya (pp. 88–102), State development (pp. 130–150).
5. Schumpeter, J. A. (1954). History of economic analysis. Oxford University Press. (pp. 41–45)
6. Alatas, S. F. (2013). Applying Ibn Khaldun: The recovery of a lost tradition in sociology. Routledge. (pp. 15–19)
7. Huntington, S. P. (1968). Political order in changing societies. Yale University Press. (pp. 1–7)
8. Deutsch, K. Political science: Government and politics. (pp. 5–7)
9. Giddens, A. (2001). Sociology (4th ed.). Polity Press. (pp. 112–115)